ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BADIIY ASARDA BIOGRAFIK TASVIRNING O'RNI

Mansurova Umidaxon Ibrohimovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining mustaqil izlanuvchisi

Inson yashar ekan, o'z ortidan majoziy ma'noda iz qoldiradi. Odil Yoqubovdan ham katta ma'naviy va ijodiy meros qoldi. Bu meros bir tomondan o'zbek adabiyotining nufuzini yuksaltirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan nafaqat o'z zamonasi yoshlarining, balki kelajak avlodning ham ma'naviy qiyofasini boyitishga, shuningdek, odamiylik, diyonat, qadr-qimmat va chin muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchining o'zi ham mana shu bebaho tuyg'ular bilan umr kechirdi va o'z asarlariga singdira oldi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldosh yozadi: «Ijod mahsuli ijodkor shaxsiyatidan o'zgacha bo'lmaydi. Ijodkor va asar munosabatini og'och va uning mevasiga o'xshatish mumkin. Biror meva uni yetiltirgan og'ochdan ortiq bo'lolmagani kabi badiiy asar ham uning muallifi darajasidan baland bo'lolmaydi»[1]. Bu fikrni shu ma'noda qabul qilish mumkinki, yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy voqelikni qalban qayta yaratar ekan, shubhasiz asariga o'z «men»i, shaxsiyati, ruhiyatiga muhrlanib qolgan kechmishidan ham bir parchasini singdirib yuboradi. Binobarin, yozuvchi o'z qarashlarida, o'ylovlarida, yaratgan asarlarida nafaqat ichki olamni, balki o'z boshidan kechirgan xarakterli voqea-hodisalarni ham asarlari mohiyatiga singdirib yuborishi, epizodik manzaralar yaratishi, g'oyaviy-badiiy xulosalar chiqarishi, ya'ni biografik tasvirdan unumli foydalanishi mumkin.

«Badiiy asar – xoh u lirika, xoh nasr, xoh drama bo'lsin – yozuvchining ijod mahsuli. Farzand ota-onaga o'xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi»[2]

Adib asarlarida bunday yozuvchi shaxsiyati bilan bog'langan hayotiy lavhalar ko'plab uchraydi.

Odil Yoqubovning deyarli barcha asarlari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan. Kichik qissalaridan tortib to yirik romanlarigacha allaqachon xalkimizning kitob javonidan joy olib, durdona asarlar turkumiga kirishga ulgurgan va dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan. Biz Odil Yoqubovni nafaqat nasriy asarlar ustasi balki, adolatparvar shaxs va haqiqat uchun jonini ham ayamaydigan xalqparvar inson sifatida ham yaxshi bilamiz. Shu o'rinda 1989-yilda Sobiq ittifoq deputatlaring birinchi syezdida so'zlagan odilona nutqini eslashning o'zi kifoya. Shoyim Bo'tayev ta'biri bilan aytganda «shaxs sifatida o'zi yoqqan ezgulik mash'alasini ko'tarib minbarga chiqishi»[3] xalqimizning bugungi yorug' kuniga bir turtki bo'lgan. Ba'zi asarlarining dunyoga kelishiga esa «Paxta ishi» shiori ostida yurtda ro'y bergan nohaqliklar va adolatsizliklar sabab bo'lgan. «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili» romanlari ana shu og'riqlarning totli mevasidir.

Bu haqda yozuvchining o'zi shunday deydi: «Adolat nihoyatda ulug' insoniy fazilat va o'lmas tuyg'u. Adolat va adolatparvarlik haqida yozish esa juda-juda og'ir vazifa hamda vijdon ishi. Men Xudoyimning adolatiga va haqiqatiga ishonib yozdim va yashadim... Bor haqiqatni aytib qo'yay, adabiyotda bitta va yogona adolat bor, u ham bo'lsa yuksak iste'dod bilan yozilgan yaxshi asargina ijodkorni mashhur qiladi»[4]

Odil Yoqubovning asar qahramonlari o'zi kabi haqparvar. Yozuvchi dil tubidagi orzu-istaklari, niyatlari va armonlarini personajlarining taqdiriga ko'chirib, qalb jarohatiga malham izlagandek. Uning «Adolat manzili» romanidagi quyidagi parchani olaylik. Asarning bosh qahramoni Lochin onasiga shunday yozadi: «Adolat qidirgani safarga chiqdim. Bu yo'l juda uzoq bo'ladi. Balki bir necha yillar, balki o'n yillar ketar, adolatni tiklab, otamning nomini oqlashimga... Demoqchimanki, boshimga ne savdolar tushmasin otamning nomini oqlayman, uning halol inson ekanligini isbotlayman, adolatni tiklamay qaytmayman...»[5] Bu satrlar ortida adibning siymosi namoyon bo'lib turganini sezish qiyin emas.

Yozuvchining kichik hikoyalari va yirik romanlarida ham adib hayotining bir parchasi yoritib o'tilganligini, real voqealar asar syujetiga singdirib yuborilganligini kuzatish mumkin. «Muzqaymoq» hikoyasidagi Egamberdi Jaqubovning tilga olinishi, kichik

[1] Qozoqboy Yo'ldosh. So'z yolqini. – Toshkent, 2018. – B. 336.
[2] Rasulov A. Tanqid.Talqin.Baholash. – Toshkent, 2006. – B. 75.
[3] Shoyim Bo'tayev. "Xalq so'zi" gazetasi. 2021-yil, 19-oktabr.
[4] Jo'rayev A. Odil Yoqubov xazinasidan. 2017. – B. 180.
[5] Odil Yoqubov. Adolat manzili. – Toshkent, 1996. – B. 163.

Odiljonning otasi haqidagi xotiralari yozuvchining dil tubidagi armonlarining ro‘yobidir. Yoki «Er boshiga ish tushsa» romanidagi Mashrabning otasi haqidagi o‘ylovlarida ham Egamberdi Jaqubovning siymosini ko‘rishimiz mumkin.

Munaqqid Norboy Xudayberganov Odil Yoqubovni iste’dodli yozuvchi sifatida ta’riflab, shunday deydi: «Yozuvchi boshidan kechirganlarini, ko‘rgan bilganlarini qog‘ozga tushirib qo‘ya qolgan, deysizmi? Ammo iste’dod bilan, ilhom bilan bitilgan asarda yozuvchi o‘zi ko‘rgan-bilgan asarlarini soqit qilib, boshqa narsani ifodalaydimi? Yo‘q, bunday vaziyatda ham qalamkash hayotiy bilimini ishga soladi, lekin unga yanada salmoqliroq, yanada qimmatliroq biror narsa qo‘shib, biz sezmagan, anglamagan kashfiyot, yangilik yaratadi. Iste’dod shunday sirli, sehrli mo‘jizaki, u yozuvchini hatto o‘zi sezmagan holda xech kimga ayon bo‘lmagan boy, go‘zal, hammaga zavqshavq, muhim ijtimoiy saboq baxsh etadigan olam yaratishga majbur qiladi, da’vat etadi, ilhomlantiradi»[1].

Odil Yoqubovning tarjimai holidan yaxshi bilamizki, u urush davrida yoshini oshirib frontga ketadi va Gobi sahrolarini piyoda kezib o‘tib, Yaponiyaga qarshi urushda ishtirok etadi. Shu urush sahnalari yozuvchiga «Izlayman», keyinchalik «Qaydasan, Moriko» qissalarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Urush mavzusida bitilgan ushbu asarlarda ham yozuvchi ijodiga xos bo‘lgan chin insoniylik, sevgi va muhabbat, yurtga sadoqat g‘oyalari tarannum etilgan.

«Izlayman» qissasi qahramoni Mansur Murodov. Asar syujeti uning tilidan ishonarli va sodda tilda bayon qilingan. Bu qahramon yozuvchining yoshlik chog‘ini, jang maydonidagi xotiralarini esga soladi.

Asar avtobiografik ruhda bitilgan bo‘lib, adibning urushda kechgan umrining bir sahifasi sifatida yodda qoladi. Shunga ko‘ra kitobxon qissa qahramoni Mansur Murodovni Odil Yoqubov timsolida qabul qiladi. Asarda Gobi sahrosini kechib o‘tish va urush maydoni zo‘r poetik mahorat bilan jonli tasvirlab, urushning alamli og‘riqlarini kitobxonga yuqtira oldi.

Qissada Mansurning ilk bora Salomatxonni ko‘rganida ko‘nglida iliq tuyg‘ularning uyg‘onishi, Olya Kupriyanovani g‘oyibona yoqtirishi, hatto Davron G‘oziyev va Nogayevdan rashq qilishi, Gobi sahrosida va Hingan tog‘larida chekkan mashaqqatlari, Davron G‘oziyevning o‘limi oldidan aytgan so‘zlari, barcha voqealar rivoji va badiiy obrazlar ishonarli va tabiiy aks ettirilgan. Bunga asosiy sabab syujet voqealari nafaqat yozuvchi xayolida yaratilgan, balki real hayotda o‘zi boshidan kechirgan, guvohi bo‘lgan haqiqatlar bilan bog‘langanidadir. Bu esa, albatta asar voqealarning jonli, hayotiy chiqishiga yordam bergan.

Mansur Murodov obrazida yozuvchi shaxsiyatini kuzatuvchan, o‘ta qiziquvchan, ayni paytda sodda, quv, rashkchi va mehnatkash qiyofada ko‘rsak, uning adolatparvar va yurtga sadoqat tuyg‘ularini Davron G‘oziyev obrazi timsolida his qilamiz. Yozuvchi Vatan uchun qon kechgan mard o‘g‘lonlarimizning bir vakili sifatida Davron G‘oziyevni gavdalantirgan. U gvardiyachi- kapitan. O‘z oilasini tashlab, vatan uchun kurashga otlangan. Necha marotaba ajal bilan olishib omon qolgan. Hatto vatan urushi tugaganidan so‘ng ham uyiga qaytmaydi, balki Yaponiya bilan bo‘lgan urushga otlanadi. Bir necha bor yaralanishiga qaramay jang maydonini tashlab ketmaydi. Shuncha qilgan xizmatlari evaziga esa rahmat eshitish o‘rniga, birgina xatosi uchun (xato deb bo‘lsa, agar) unga qarshi ish qo‘zg‘amoqchi bo‘lishganini, unga bildirilgan ishonchsizlikni ko‘tara olmaydi. Qissaga bejiz «Izlayman» deb nom berilmagan. Adib Davron G‘oziyev timsolida adolat izlab, haqsizlikka qarshi isyon qilganlar siymosini ko‘ramiz. Ba’zan haqiqatni izlab ham topib bo‘lmaydi. Davron G‘oziyevning tili bilan aytganda «Haqiqat qilish oson bo‘lsa, uning qadri bo‘lmaydi».

Davron G‘oziyevning o‘limi oldidan aytgan quyidagi so‘zlari har qanday kitobxonning qalbini jumbushga keltirib, ko‘ziga yosh oldiradi, mushohada qilishga chorlaydi: «Haqiqat qilish uchun nega tergovni mendan boshlash kerak ekan? Nega o‘sha odamdan, g‘irt tuhmat gaplarni to‘qib yurgan o‘sha nokasdan boshlashmaydi? Meni tergov qilishdan oldin kimligimni surishtirib ko‘rsa bo‘lmaydimi? Yo to‘rt yil frontda tizzadan qon kechib qilgan xizmatlarim inobatga olinmaydimi? Jonimni ayamay to‘rt yil dushman bilan olishganimda, uch marta yaralanganimga qaramay jang maydonini tashlab ketmaganimda... axir oqibat qadrim shu bo‘ldimi? Qilgan shuncha xizmatlarim, chekkan azoblarim, to‘kkan qonim... buning hammasi bitta g‘alamisning ablahona tuhmatiga bas kelolmaydimi? Menga - jangovar sovet ofiseriga ishonch shu bo‘ldimi, o‘rtoq polkovnik?»[2]

Odil Yoqubov Davron G‘oziyev, Mansur Murodov, Arslon, Xritonov, Vasya timsollari orqali haqiqiy vatan o‘g‘lonlarini aks ettirgan. Aksincha, Hoshim Xolmatov, Nogayev va Mirhaydar timsollari orqali esa yurt boshiga tushgan tashvishdan foydalanib, o‘z foydalarini o‘ylaydigan nopok va vijdonsiz kishilar qiyofasi ochib berilgan. Xolmatovning yo‘lini qilib rayon maorif bo‘limiga boshliq bo‘lib olgani, Nogayevning doimo yaxshi taomlar yeb, spirtli ichimliklar ichib yurishi,

[1] Xudoyberganov N. Parvoz davom etadi. – Toshkent, 1980. – B. 8.

[2] Odil Yoqubov. “Onaizor”qissalar va hikoylar. – Toshkent, 2020. – B. 249.

Mirhaydarning esa oziq-ovqat omboriga ishga joylashib olishi va kartoshka o‘g‘irlab butun batalonga sharmanda bo‘lish voqealari ishonarli aks ettirilgan.

Salomatxon obrazi esa sadoqatli yor sifatida tasvirlangan. Barcha o‘zbek ayollari singari o‘z yorining frontdan kelishini sabr ila kutadi. Lekin yoriga cheksiz sadoqati va muhabbatini isbotlash uchun ota uyiga qaytishga majbur bo‘ladi. Sababini esa shunday izohlab, yoriga maktub bitadi: «...erini kutishga sabri yetmadi, bevafo!» deganga o‘xshagan mayda-chuyda mish-mishlarga sabab bo‘lishini bilardim, lekin Farg‘onada qolib «Xolmatov» bilan gap-so‘z bo‘lishdan ko‘ra, bu nohaq «mish-mishlar»ga chidab berishni afzalroq ko‘rdim. Chunki bizning muhabbatimizga birov dog‘ tushirishini, aytiqsa, raqibingiz Xolmatov dog‘ tushirishini istamas edim. Ketishimning sababini hech kimga aytmaganim ham shundan. Agar bu ishda mendan xato o‘tgan bo‘lsa kechirgaysiz»[1].

Inson o‘z baxtini turli mezonlar bilan o‘lchaydi. Kimdir boylik, kimdir farzanlar baxt-u kamolidan, kimdirlar esa baxt nimalinigi ham bilmay o‘tadi. Salomatxon esa o‘z baxtini - chin muhabbatini topganidan deb biladi va umri so‘ngiga qadar ana shu baxtini sog‘inib yashadi.

Barchamizga ma’lum, ikkinchi jahon urushi davrida nafaqat jangchilarimiz, balki front ortida ham bir qancha insonlar o‘z mehnatlari orqali kurashgan. Ba’zi xotin-qizlarimiz esa er yigitlar qatori qo‘liga miltiq olib, jang maydonlarida qon kechishgan. Ana shunday obrazlardan biri bu Olya Kupriyanovadir. Institutni tashlab urushga otlangan, to‘qqiz kishilik desantchilar orasida omon qolgan, bir qancha qahramonliklar ko‘rsatib, oxir-oqibat jang maydonida qahramonlarcha halok bo‘lgan bu rus ayoli Mirxaydar va Xolmatov singari kaltabinlardan jasurligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi jahon urushi davrida Salomatxon kabi ayollar o‘z sadoqati va muhabbati bilan yigitlarni ruhlantirgan bo‘lsa, Olya Kupriyanova kabi ayollar esa qo‘llariga qurol olib, jang qilishgan. Odil Yoqubov har ikki ayol obrazini yaratish orqali ayol qalbining qanchalar nozik ekanligini, u qaysi millat vakili bo‘lmasin urushning sovuq taftini birdek his qilganliklarini va bu urushning qanchadan qancha yaxshi insonlar umriga zomin bo‘lganligini ko‘rsatib berdi.

Har qanday jamiyatda va oilada ayolning o‘rni beqiyos. Tiriklikni suvsiz, falakni quyoshsiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, ayolsiz hayotni tasavvur etish mumkin emas. Hatto badiiy adabiyotda ham uning o‘z o‘rni bor.Ayol obrazi go‘yo asar syujet va kompozitsiyasini tutib turuvchi ustun kabidir. Agar u adabiyotdan olib tashlansa, har ikki unsur ham ma’no-mazmunini yo‘qotadi.

Xalqimiz orasida «Sevgi yosh tanlamaydi» degan naql bor. Bu pokiza tuyg‘uni his qilmagan insonning o‘zi bo‘lmasa kerak. Hatto to‘qson yoshga kirgan nuroniyga ham «ilk muhabbatingiz bo‘lganmi?» deya savol bersangiz, nim tabassum bilan javob beradi. Odil Yoqubov ham umrining so‘nggida bitgan asari muhabbat haqida bitilgan go‘zal qissa bo‘ldi. Bu asar nafaqat muhabbat haqida, balki yozuvchining yoshlik xotiralari haqidadir.

Jurnalist Ahror Ahmedov shunday xotirlaydi: «Odil aka fashizmga qarshi urushdan nari Yapon urushida ham qatnashgan. O‘sha urush mahallari, azob-uqubatlari aro go‘zal Yapon qizi Mariko haqidagi qissasi o‘ta ta’sirli asar edi. Meni bir narsa hayron qoldiradi. Nega adib buni o‘z umri poyonida yozdi. Shuncha vaqt yuragida qanday saqladi? Chunki asar juda samimiy, hayajonli-da. Shuncha samimiyatni, mehrni qirq-ellik yil yurakda saqlab yurish mumkinmi?

Bir kun Odil aka telefon qilib qoldilar:

-Ahror, yaxshimisan, munday kelmaysan ham, o‘zim chaqirmasam. Xullas, kechda uyga kel. Kennoying shilpildoq qilib bermoqchi. Shu desang, meni Marikoga rashk qilyapti, saksonga kirgan cholni (xoxolab kuldilar). Ammo o‘zinglar ham Marikoni yaman chiroyli qilib tayyorlabsanlar. Baraka toplaring»[2].

Maryam Yoqubovaning Morikoga rashk qilishi bejiz emas. Bir sevgi tarixi haqida yozilgan bu qissada yozuvchi o‘z his-tuyg‘ularini hech qanday mubolag‘asiz, ortiqcha bo‘yoqlarsiz, sodda va ishonarli tarzda bayon etgan. Yozuvchi Marikoni shunday ta’riflaydi: «-O-o, juda ko‘p-ku!-dedi u rus so‘zlarini yaponcha talaffuz qilib. Uning kulgisi ham, rus so‘zlarini buzib talaffuz qilishi ham endigina tilga kirgan go‘dakning bidirlashidan yoqimtoy edi...»[3]

Yoki boshqa bir o‘rinda yozuvchimiz o‘z tuyg‘ularini oshkora aytishdan tortinmaydi. Morikoga bo‘lgan pokiza muhabbati yillar ortida qolib ketgan xotiralar qa’rida berkinib yotganligiga o‘zi ham iqror bo‘ladi...

«Nima qilardingiz kelib, xonim, nima qilardingiz anav buloqday tiniq esdaliklarimizga rahna solib?»-degan fikr o‘tdi. Xonim go‘yo mening o‘ylarimni payqaganday chuqur tin oldi-da, hazin jilmaydi. Shunda u o‘sha, bir necha daqiqaga bo‘lsa ham, og‘ir soldatlik hayotimni ajib bir nurga yo‘g‘irgan mitti Morikoga juda-juda o‘xshab ketdi-yu, ichimda o‘z o‘ylarimdan xijolat chekdim. Axir kim bilsin, ehtimol bu xonim ham o‘sha yoshlik esdaliklari sabab meni yo‘qlab kelgandir? Ehtimol o‘sha beg‘ubor, musaffo tuyg‘ular goho-goho uning diliga ham quyilib kelgusidir...»[4]

[1] Odil Yoqubov. “Onaizor”qissalar va hikoylar. – Toshkent, 2020. – B. 256.

[2] Ahmedov A. Mening aziz mualliflarim. “Kitob dunyosi” gazetasi.2023-yil,14-iyun,9-10son

[3] O.Yoqubov. Qaydasan, Moriko. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 176.

[4] O.Yoqubov. Qaydasan, Moriko. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 180.

Bu qissa nafaqat urushning fojialari, azob-uqubatlari haqida, balki qalblarga so‘roqsiz kirguvchi muhabbat haqidadir. Sevgi vaqt ham, o‘rni kelganda masofa ham, millat ham tanlab o‘tirmaydi. Inson vatan urishi davrida ham ana shu tuyg‘udan bebahra qolmadi. Yozuvchimiz bu qissada muhabbat ko‘chasiga ilk qadamini qo‘ydi va umrining so‘nggiga qadar shu tuyg‘uni unutmadi. Rus kapitani mayor esa Chiko sabab armiyadan haydaladi. Uni qidirib Yaponiyaga bormoqchi ham bo‘ladi. Bizga noma’lum sabablarga ko‘ra bu va’dalar «Yoshlik xayollari, ertak»ligicha qolib ketadi.

Shuningdek bu qissada yapon ayollaring go‘zalligi, muhabbatda, sadoqatda tengsiz ekanligi Moriko va Chiko obrazlari orqali ochib berilgan. Opa-singillarning qalbida zarracha bo‘lsa-da muhabbat tuyg‘usi bo‘lmaganda edi, ilk muhabbatini so‘nggi bor ko‘rishga oshiqmagan, rus yigiti moyor esa bir umr kutilmagan bo‘lar edi. Bir so‘z bilan aytganda, muhabbat to‘g‘risida yozilgan bu qissa adibning qalb qo‘ridan bitilgan, yoshlik xotiralari ila sug‘orilgan bebaho asardir.

Odil Yoqubov turli obrazlarni yaratib, milliy nasrimizni o‘ziga xos qahramonlar bilan boyitdi. Bu asarlardagi aksariyat obrazlar chin muhabbat va samimiy tuyg‘ular egasi. Bu samimiy tuyg‘ular orqali asar qahramonlari goho yaxshilik topsa, goho buning aksi. Goh jamiyatda o‘z o‘rnini topdi, goh oilasida. Odil Yoqubov asarlarida voqealar rivojini shunchaki bayon qilib qo‘ya qolmaydi, balki ruhiyatini va xayol jilvalarini yoritishga harakat qiladi. Shuning uchun ham Sharif va Muqaddas, Vohid va Roziya, Saltanat va Kamol, Samig‘ va Matluba, Hikmatilla va Nilufar, Akram va Sayyora hamda Saltanatxon va Davron obrazlari huddi bizning zamonda yashagandek, ular bilan hamsuhbat bo‘lgandek kishida taassurot qoldiradi. Ular tashvishidan tashvishga tushib, chin muhabbatidan esa quvonamiz. Olamdan ko‘z yumganda esa (Davron, Suyun obrazlari) ko‘z yosh to‘kamiz. Bu esa yozuvchi obrazlarining ichki dunyosini ochib bera olganligidan va kitobxonni adabiyot olamiga olib kira olganligidan dalolatdir.

Bir so‘z bilan aytganda Odil Yoqubov adabiyot olamida o‘z o‘rnini topib, o‘z so‘zini ayta olgan va milliyligimizni asarlariga singdirib, go‘zallikni tarannum etgan yozuvchi sifatida kitobxon mehrini qozongan. Uning asarlari insonlarning estetik didini tarbiyalashga, ma’naviyatini boyitishga xizmat qiladi.

Resume. the place and use of the biographical image in Odil Yaqubov’s short stories, artistic-aesthetic functions and the cases of the manifestation of the writer’s “I” and personality in his works have been researched from the point of view of artistic skill and scientific considerations have been put forward.

Резюме. С точки зрения художественного мастерства исследуются место и использование биографического образа в рассказах Одила Якубова, художественно-эстетические функции и случаи проявления «Я» и личности писателя в его произведениях, выдвигаются научные соображения.